

TALABALARDA AYBDORLIK HISSI NAMOYON BO'LISHIDAGI O'ZIGA XOS GENDER FARQLAR

*Djurakulova Dilfuza Farxodovna
Samarqand Davlat Universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda aybdorlik hissi namoyon bo'lishidagi gender farqlar turli psixodiagnostik metodikalar yordamida tahlil qilingan va olingan natijalar ilmiy asosda yoritib berilgan. Bundan tashqari talaba yigit va qizlarda aybdorlik hissi namoyon bo'lishidagi o'ziga xos psixologik xususiyatlar; ularning shakllanishiga sabab bo'luvchi omillar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Biologic omil, ijtimoiy omil, steriotip, gender rollar, emotsional xulq-atvor, aybdorlik, depressiya, altruizm, egoizm, eksternallik, internallik, uyat.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ГЕНДЕРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ПРОЯВЛЕНИИ ЧУВСТВА ВИНЫ У СТУДЕНТОВ

*Джуракулова Дилфуза Фарходовна
Самаркандский государственный университет*

Аннотация. В данной статье проанализирована проявление гендерных различий чувства вины у студентов с помощью различных методик и полученные результаты научно обоснованы. Кроме того, выделены специфические психологические особенности проявления чувства вины, факторы, вызывающие его формирование.

Ключевые слова: биологический фактор, социальный фактор, стереотип, гендерная роль, эмоциональное поведение, вина, депрессия, альтруизм, эгоизм, экстернальность, интернальность, стыд.

SPECIFIC GENDER DIFFERENCES IN THE MANIFESTATION OF FEELINGS OF GUILT IN STUDENTS

*Djurakulova Dilfuza Farxodovna
Samarkand State University*

Annotation. This article analyzes the manifestation of gender differences in feelings of guilt in students using various methods and the results obtained are scientifically substantiated. In addition, specific psychological features of the manifestation of guilt and the factors causing its formation are highlighted.

Keywords: biological factor, social factor, stereotype, gender role, emotional behavior, guilt, depression, altruism, egoism, externality, internality, shame.

Bizga ma'lumki, aybdorlik hissini boshdan kechirishdagi gender farqlar asosan ikkita omil bilan belgilanadi, bular: biologik va ijtimoiy omillardir. Biologik omillar orqali erkak va ayollarning fiziologik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar tushunilsa, ijtimoiy omillar erkak va ayollarga xos bo'lgan tarbiyada namoyon bo'ladi va u jamiyatda «erkak» va «ayol»larga xos bo'lgan xatti-harakatlar stereotipining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Azal-azaldan o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan sifatlardan biri, oilada o'g'il va qizlarni tarbiyalashda ularni har biriga alohida yondashuvning mavjudligi, ya'ni qiz bolani tarbiyalash va unga «ayol»larga xos xatti-harakatlar stereotipini singdirishda ota-onalar ko'pincha unda aybdorlik tuyg'usini qo'zg'atishga qaratilgan usullardan foydalanishganidadir. O'smir o'g'il bolalarda aybdorlik hissi kamroq darajada bo'ladi, chunki, birinchidan jamiyatda gender rollar stereotipining bir qismi sifatida o'g'il bolalarda qat'iyatlilik, qaysarlik, ishonch va har qanday talabchanlik sifatlarining namoyon bo'lishi atrofdaqilar tomonidan rag'batlantiriladi, ikkinchidan esa bu xatti-harakatlar uslubi o'z tengdoshlari orasida uni qadr-qimmatini oshiradi.

Talabalarda aybdorlik hissining namoyon bo'lishida o'ziga xos gender farqlarni aniqlash maqsadida biz bir qator tadqiqot ishlarini amalga oshirdik. Biz dastlab «Aybdorlik hissini o'rganish» (I.A.Belik) so'rovnomasidan foydalanib, talabalarga quyidagi 10 ta savol bilan murojaat qildik[1]. Berilgan savollar asosan shaxsning emotsional xulq-atvor reaksiyalarini o'z ichiga olib, talabalardan aybdorlik hissini yuzaga keltiruvchi turli vaziyatlarga munosabat bildirish so'raldi.(1-jadval)

Tadqiqot jarayonida olingan natijalarga ko'ra aybdorlik hissini namoyon qilishda qiz bolalar(3,92) o'g'il bolalarga(2,89) nisbatan ko'proq darajada aybdorlikni o'zlaridan qidirishi, aksincha o'g'il bolalar(2,23) esa qiz bolalardan(2,11) farqli ravishda vaziyatni yoki boshqalarni ayblashlari ma'lum

bo'ldi. Bundan tashqari o'g'il bolalarning(2,51) ko'pchiligi bu holatda hatto men yomon ish qildim deb o'ylamayman yoki eslash og'ir bo'lgan o'sha vaziyatni unutishga va o'ylamaslikka harakat qilaman deb javob berishgan bo'lsa, qiz bolalarda(1,96) bu ko'rsatkich nisbatan pastroq darajada ekanini ko'rishimiz mumkin. Lekin, bo'lib o'tgan so'nggi voqealarni tahlil qilish, ulardan saboq olishga harakat qilish, qilgan xatolarini to'g'irlash yoki yuzaga kelgan noxush holatni bartaraf etishga harakat qilish o'g'il bolalarda(3,79) ham qiz bolalarda(3,75) ham deyarli bir xil ko'rsatkichni berdi. Psixosomatik reaksiyalar ya'ni bosh og'rig'i, o'zini yomon his qilish, ishtahaning kuchayishi yoki yetishmasligi va boshqalar qiz bolalarda(2,57) o'g'il bolalarda(2,32) nisbatan yuqoriroq darajada ekanligini ham ushbu tadqiqot natijasi orqali bilib olishimiz mumkin. Aybdorlik hissini ifodalashda talaba-qizlar o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq kechinma bilan birga keladigan jismoniy his-tuyg'ularni tasvirlashga harakat qilishdi, masalan ular aybdorlikni «og'ir hissiy kechinma», «depressiya», «qalb og'rig'i» hamda «ruhiy azoblanish» bilan bog'lashadi.

Aybdorlik hissi namoyon bo'lishidagi emotsional xulq-atvor reaksiyalarini tahlil qilish natijasida qizlar o'z-o'zini ayblash, pushaymonlik hissi hamda o'z xatti-harakatlarini oqlashga ko'proq moyilligini ko'rsatgan bo'lishsa, aksincha, o'g'il bolalar ushbu kechinmaga sabab bo'lgan vaziyat haqida o'ylamaslikni hamda iloji boricha unutishni xohlaydilar, zero ular o'z harakatlarini ko'p holatlarda yomon deb baholamaydilar ham.

Ayollarda ham, erkaklarda ham aybdorlik kechinmasini uyg'otadigan vaziyatlar, ulardagi jamiyat taraqqiyoti davomida shakllangan stereotipik «ayollik» tushunchasi (g'amxo'r va mehribon ona, do'st, xotin sifatida) hamda «erkaklik» xulq-atvori (jamiyatdagi erkaklarning asosiy roli) bilan bog'liq. Misol uchun, ayollar o'zlarini befarqliklari uchun, ya'ni o'z yaqinlariga yetarlicha e'tibor bera olishmaganlarida, ularni xafa qilishgan yoki azoblashganlarida, yordam so'rab murojaat qilganlarida rad javobini berishgan bo'lsa ham o'zlarini aybdor his qilishadi. Erkaklar esa o'zlarining cheklovlarini anglaganlarida yoki o'z g'azablarini tutib turolmaganliklari bilan bog'liq vaziyatlarni bunga sabab qilib ko'rsatadilar.

1-jadval.

«Aybdorlik hissini o'rganish»so'rovnomasi bo'yicha aybdorlik hissi namoyon bo'lishidagi gender farqlar

Emotsional xulq atvor reaksiyalari	O'rtacha qiymat (o'g'il bolalarda)	O'rtacha qiymat (qizbolalarda)	t – ststistik farqko'rsatkichi	p
1.Hamma narsada o'zimni ayblayman	2,89	3,92	-6,67	0,02
2.Qilgan ishimdan pushaymon bo'laman	3,46	3,8	-1,71	0,08
3. Men ko'proq narsa qilmaganim yoki imkoniyatlarni qo'ldan boy berganim uchun afsuslanaman	3,34	3,47	-0,48	0,63
4. Bo'lib o'tgan so'nggi voqealarni tahlil qilaman (vaziyat yoki xatolar) va bo'lgan ishlardan saboq olishga harakat qilaman.	3,81	3,75	0,37	0,70
5. Men yomon ish qildim deb o'ylamayman	2,51	1,96	2,19	0,03
6. Men uchun eslash og'ir bo'lgan o'sha vaziyatni unutishga va o'ylamaslikka harakat qilaman	3,21	2,62	2,73	0,01
7.O'zimni oqlayman	3,04	2,73	-1,64	0,09
8. Boshqalarni yoki vaziyatni ayblayman	2,23	2,11	-1,01	0,24
9. Men qilgan xatoimni to'g'irlyman yoki yuzaga kelgan noxush holatni bartaraf etishga harakat qilaman	3,79	3,75	0,26	0,80
10. Psixosomatik reaksiyalar (boshog'rig'i, o'zini yomon his qilish, ishtahaning kuchayishi yoki yetishmasligi va boshqalar)	2,32	2,57	-1,53	0,12

Ayollarda ham, erkaklarda ham aybdorlik kechinmasini uyg'otadigan vaziyatlar, ulardagi jamiyat taraqqiyoti davomida shakllangan stereotipik «ayollik» tushunchasi (g'amxo'r va mehribon ona, do'st, xotin sifatida) hamda «erkaklik» xulq-atvori (jamiyatdagi erkaklarning asosiy roli) bilan bog'liq. Misol uchun, ayollar o'zlarini befarqliklari uchun, ya'ni o'z yaqinlariga yetarlicha e'tibor bera olishmaganlarida, ularni xafa qilishgan yoki azoblashganlarida, yordam so'rab murojaat qilganlarida rad javobini berishgan bo'lsa ham o'zlarini aybdor his qilishadi. Erkaklar esa o'zlarining cheklovlarini anglaganlarida (vaziyatni nazorat qila olmaslik va h.k.) yoki o'z g'azablarini tutib turolmaganliklari bilan bog'liq vaziyatlarni bunga sabab qilib ko'rsatadilar.

Aybdorlikni yuzaga keltiruvchi ob'ekt sifatida, ayollar ko'proq ota-onalarini, o'z farzandlarini va qarindoshlarini eslatib o'tishsa, erkaklar aybdorlik ob'ektini konkretlashtirishga moyilligini ko'rsatishadi, ya'ni ular faqat xafa qilgan insonlarinigina ta'kidlashadi xolos.

Qiz bolalar aybdorlikni boshdan kechirganda, boshqalardan o'zlariga nisbatan hamdardlik bildirishlarini, ularni tushunishlarini, qo'llab-quvvatlashlarini hamda kechirimli bo'lishlarini xohlashadi, o'g'il bolalar esa ko'proq ijtimoiy jozibadorlikka qiziqish bildirishadi, bu esa axloqiy talablarga rioya qilish zarurligini ko'rsatadi, ya'ni, halol, tartibli va mas'uliyatli bo'lish.

Bundan tashqari biz tadqiqot davomida, turli metodikalar yordamida olingan tahlillarimizdan, qiz bolalar va o'g'il bolalar psixik xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro korrelyatsion aloqadorlikni aniqlashga harakat qildik.

Ushbu korrelyatsion tahlil aybdorlik hissi namoyon bo'lishidagi gender farqlarni asoslashimizga yanada aniqlik kiritadi hamda masalaning yechimini topishga va ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Biz tadqiqot jarayonida dastlab qiz bolalar psixik xususiyatlari o'rtasida o'zaro korrelyatsion aloqadorlikni aniqlashga harakat qildik. Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra respondentlardagi Kugler-Djons metodikasi bo'yicha «aybdorlik holati» qolgan «aybdorlik xususiyati» ($r=0,47, p\leq 0,01$), «aybdorlik axloqiy norma» ($r=0,03$), «aybdorlik» ($r=0,20, p\leq 0,05$), «altruizm-egoizm» ($r=0,40, p\leq 0,01$), «internallik» ($r=0,39, p\leq 0,01$) bilan o'zaro musbat munosabatli bog'lanishlarni hosil qilgan bo'lsa, «uyat» ($r=-0,10$), «eksternallik» ($r=-0,09$), «chetlanish» ($r=-0,09$), «alfa mag'rurlik» ($r=-0,09$), «beta mag'rurlik» ($r=-0,03$) hamda «eksternallik» ($r=-0,39, p\leq 0,01$) bilan o'zaro manfiy munosabatli bog'lanishlarni hosil qildi.

Natijalardan ko'rinib turibdiki, shaxsda altruizm darajasining ortishi ularda aybdorlik hissining ham kuchayishiga sabab bo'ladi va aksincha egoizm darajasining ortishi aybdorlik hissining susayishiga olib keladi. Qiz bolalarda aybdorlik holati va altruizm o'rtasida musbat bog'lanish ($r=0,40, p\leq 0,01$) aniqlangan bo'lsa, aybdorlik holati va egoizm o'rtasida manfiy bog'lanish mavjud. Bu esa qiz bolalarda boshqa insonlarga xolis xizmat qilish, ularning baxt-saodati uchun o'z shaxsiy manfaatlarini qurbon qilish istagi yuqoriligini va buning natijasida ular turli vaziyatlarda o'z atrofidagi insonlarga yordam bera olishmasa yoki sababsiz ularning ko'nglini og'ritgan vaziyatda o'zlarini aybdor his qilishlari bilan xarakterlanadi. Aksincha, aybdorlik va egoizm o'rtasidagi manfiy bog'lanishning mavjudligi, faqat o'z foydasini, o'z manfaatini o'ylaydigan insonlar o'zlarini kamdan-kam holatlarda aybdor his qilishlarida ifodalanadi.

Shaxsda internallik sifatining ortishi ham unda aybdorlikning kuchayishiga, eksternallik sifatining ortishi esa aksincha aybdorlikni nisbatan susayishiga sabab bo'ladi. Qiz bolalarda aybdorlik holati va internallik o'rtasida musbat bog'lanish ($r=0,39, p\leq 0,01$) aniqlangan bo'lsa, aybdorlik holati va eksternallik o'rtasida manfiy bog'lanish ($r=-0,39, p\leq 0,01$) aniqlandi. Bu bejizga emas, sababi, internal insonlar o'z hayotidagi barcha muvaffaqiyatsizlik, omadsizlik, muammolarda faqat o'zini ayblagani uchun unda aybdorlik hissining yuqori bo'lishi bu tabiiy holat. Tashqi nazorat lokusiga ega bo'lgan insonlar esa aksincha, o'z hayotidagi barcha muammolarda atrofda gilarni aybdor qilganligi sababli aybdorlik hissi ularda deyarli uchramasligidan dalolat beradi. Bundan tashqari qiz bolalardagi aybdorlik holati aybdorlik xususiyati ($r=0,47, p\leq 0,01$) bilan ham musbat bog'lanishga ega bo'lib, bu ulardagi vaqtinchalik hissiy holat ya'ni, ayni damda yoki yaqinda sodir etilgan xatti-harakat uchun boshdan kechirilayotgan kechinma o'z vaqtida tuzatilmasa asta-sekinlik bilan barqaror shaxsiy xususiyatga aylanib ketishiga sabab bo'lishini ko'rsatmoqda.

Xuddi shu metodikadagi «aybdorlik xususiyati» aynan «aybdorlik axloqiy norma» ($r=0,26, p\leq 0,01$), «aybdorlik» ($r=0,74, p\leq 0,01$), «altruizm-egoizm» ($r=0,84, p\leq 0,01$), «internallik» ($r=0,84, p\leq 0,01$) bilan o'zaro musbat munosabatli bog'lanishlarni hosil qilgan bo'lsa, «uyat» ($r=-0,36, p\leq 0,01$), «eksternallik» ($r=-0,22, p\leq 0,05$), «chetlanish» ($r=-0,18$), «alfa mag'rurlik» ($r=-0,32, p\leq 0,01$), «beta mag'rurlik» ($r=-0,36, p\leq 0,01$), «eksternallik» ($r=-0,84, p\leq 0,01$) sifatlari bilan o'zaro manfiy munosabatli bog'lanishlarni hosil qilganini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalardan shuni aniqlashimiz mumkinki, qiz bolalardagi aybdorlik

xususiyati aybdorlikning axloqiy norma sifatida shakllanishi ($r=0,26$, $p\leq 0,01$) bilan bevosita aloqadorlikda rivojlanadi, chunki, axloqiy qadriyatlar, tamoyillar, me'yorlarga rioya qilishga asoslangan aybdorlikning shaxsda uzoq vaqt boshdan kechirilishi ham uning barqaror shaxsiy xususiyatga aylanib borishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari aybdorlik xususiyati ham shaxsning al'truizm darajasi hamda internallik sifatlarining ortishi bilan bog'liq bo'lib, ushbu sifatlarining ortishi natijasida aybdorlik xususiyati ham bevosita ortib borishini kuzatishimiz mumkin. Natijalar tahlilidan qiz bolalardagi aybdorlik xususiyati ulardagi uyat, eksternallik, chetlanish, alfa mag'rurlik hamda beta mag'rurlik sifatleri bilan o'zaro manfiy bog'lanishlarni hosil qilganligini ham ko'rishimiz mumkin. Bundan esa quyidagicha xulosa kelib chiqadi, aybdorlik hissini boshdan kechirayotgan shaxs o'z xatti-harakatlarining oqibatleri uchun boshqa odamlarni yoki tashqi sharoitlarni ayblamaydi, balki asosiy aybdor deb o'zini biladi. Bundan tashqari, vaziyatga va bo'layotgan voqealarga hissiy jihatdan qo'shilmaydi, muayyan vaziyatlardagi odamning o'ziga xos xatti – harakatlariga hamda o'z shaxsiyatiga ijobiy munosabatda bo'lmaydi.

Tahlil natijalariga ko'ra Kugler-Djons metodikasi bo'yicha talaba qizlarda «aybdorlik-axloqiy norma» sifatida «aybdorlik» ($r=0,25$, $p\leq 0,05$), «alfa mag'rurlik» ($r=0,008$), «al'truizm-egoizm» ($r=0,26$, $p\leq 0,01$), «internallik» ($r=0,25$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro musbat munosabatli bog'lanishlarni hosil qildi, qolgan «uyat» ($r=-0,02$), «eksternallik» ($r=-0,15$), «chetlanish» ($r=-0,12$), «beta mag'rurlik» ($r=-0,21$, $p\leq 0,05$) hamda «eksternallik» ($r=-0,25$, $p\leq 0,01$) bilan esa o'zaro manfiy munosabatli bog'lanishlarni hosil qildi. Qiz bolalarda aybdorlikning axloqiy norma sifatida shakllanishi ulardagi alfa mag'rurlik, al'truizm, internallik sifatleri bilan bevosita aloqadorlikda rivojlanishidan dalolat bermoqda.

J.P.Tangneyning «Aybdorlik hissi va uyatni o'lchash metodikasi» bo'yicha «aybdorlik», qolgan «uyat» ($r=-0,56$, $p\leq 0,01$), «eksternallik» ($r=-0,32$, $p\leq 0,01$), «chetlanish» ($r=-0,17$), «alfa mag'rurlik» ($r=-0,33$, $p\leq 0,01$), «beta mag'rurlik» ($r=-0,56$, $p\leq 0,01$), «eksternallik» ($r=-0,67$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro manfiy munosabatli bog'lanishlarni hosil qilgan bo'lsa, faqatgina «al'truizm-egoizm» ($r=0,64$, $p\leq 0,01$) hamda «internallik» ($r=0,67$, $p\leq 0,01$) sifatleri bilan o'zaro musbat munosabatli aloqadorlikni ko'rsatdi. Ushbu metodika bo'yicha ham qiz bolalardagi aybdorlik hissi asosan shaxsdagi al'truizm-egoizm hamda internallik sifatleri bilan o'zaro birgalikda rivojlanishini ko'rsatmoqda.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra respondenlardagi J.P.Tangney bo'yicha «uyat» hissi qolgan «eksternallik» ($r=-0,05$), «chetlanish» ($r=-0,21$, $p\leq 0,05$), «alfa mag'rurlik» ($r=-0,01$), «al'truizm-egoizm» ($r=-0,30$, $p\leq 0,01$), «internallik» ($r=-0,30$, $p\leq 0,01$) sifatleri bilan o'zaro manfiy munosabatli aloqadorlikni hosil qilgan bo'lsa, aksincha, «beta mag'rurlik» ($r=0,03$) hamda «eksternallik» ($r=0,30$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro musbat munosabatli aloqadorlikda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rinadiki qiz bolalardagi beta mag'rurlik hamda eksternallik sifatlarining rivojlanishi ulardagi uyat hissining ham birgalikda rivojlanishiga sabab bo'lar ekan. Bu vaziyatni quyidagicha izohlash mumkin: demak, uyat hissini boshdan kechirayotgan shaxs o'z harakatlarining oqibatleri uchun boshqa odamlarni yoki tashqi sharoitlarni ayblashga harakat qiladi, bundan tashqari muayyan vaziyatlardagi odamning o'ziga xos xatti – harakatlariga ijobiy munosabatda bo'ladi.

Ushbu metodika bo'yicha «eksternallik» qolgan «chetlanish» ($r=-0,15$), «al'truizm-egoizm» ($r=-0,15$), «internallik» ($r=-0,28$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro manfiy munosabatli bog'lanishlarni hosil qilgan, aynan «alfa mag'rurlik» ($r=0,01$), «beta mag'rurlik» ($r=0,008$) hamda «eksternallik» ($r=0,28$) bilan o'zaro musbat bog'lanishlarni hosil qilganligini ko'rsatdi. Qiz bolalardagi eksternallik sifati esa asosan alfa mag'rurlik va beta mag'rurlik bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanar ekan. Bundan ko'rinadiki, agar shaxsda eksternallik sifati rivojlansa u o'z xatti-harakatlarining oqibatleri uchun boshqa odamlarni yoki tashqi sharoitlarni ayblashga, muayyan vaziyatlarda odamning o'ziga xos xatti – harakatlariga hamda o'z shaxsiyatiga ijobiy munosabatda bo'lishga harakat qilar ekan.

Bundan tashqari ushbu metodikadagi «alfa mag'rurlik» faqat «beta mag'rurlik» ($r=0,12$) hamda «eksternallik» ($r=0,24$, $p\leq 0,05$) bilan o'zaro musbat munosabatli aloqadorlikni hosil qilgan bo'lsa, qolgan «al'truizm-egoizm» ($r=-0,30$, $p\leq 0,01$) hamda «internallik» ($r=-0,24$, $p\leq 0,05$) bilan o'zaro manfiy munosabatli bog'lanishlarni hosil qildi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek qiz bolalardagi alfa mag'rurlik asosan ulardagi beta mag'rurlik hamda eksternallik sifatleri bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanar ekan.

Tahlil natijalariga ko'ra respondenlardagi «al'truizm» darajasi «internallik» ($r=0,71$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro musbat munosabatli aloqani hosil qilgan bo'lsa, aksincha «eksternallik» ($r=-0,71$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro manfiy munosabatli aloqadorlikni hosil qildi.

Yuqorida keltirilgan tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki qiz bolalarda «aybdorlik xususiyat» sifatida ($r=0,47$, $p\leq 0,01$) yuqori bo'lib, u «al'truizm» ($r=0,40$, $p\leq 0,01$) hamda «internallik» ($r=0,39$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro musbat munosabatli bog'lanishlarni hosil qilgan. Biz bilamizki agar, shaxsda

aybdorlik hissi xususiyat sifatida yuqori bo'lsa, bu ularda ushbu hisning barqaror shaxsiy xususiyat sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, barqaror xususiyat sifatida shakllangan aybdorlikni boshdan kechirayotgan qiz bolalarda al'truizm darajasi hamda internallik ham nisbatan yuqori ko'rsatkichni ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida biz o'g'il bolalar psixik xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro korrelyatsion aloqadorlikni (Pirson korrelyatsiya koeffitsenti bo'yicha) ham aniqlashga harakat qildik.

Tadqiqot davomida biz o'g'il bolalar psixik xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro korrelyatsion aloqadorlikni ham aniqlashga harakat qildik. Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra respondentlardagi Kugler-Djons metodikasi bo'yicha «aybdorlik holati» qolgan «aybdorlik xususiyati» ($r=0,51$, $p\leq 0,01$), «aybdorlik axloqiy norma» ($r=0,11$), «aybdorlik» ($r=0,43$, $p\leq 0,01$), «al'truizm-egoizm» ($r=0,48$, $p\leq 0,01$), «internallik» ($r=0,49$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro musbat munosabatli bog'lanishlarni hosil qilgan bo'lsa, «uyat» ($r=-0,24$, $p\leq 0,05$), «eksternallik» ($r=-0,21$, $p\leq 0,01$), «chetlanish» ($r=-0,08$), «alfa mag'rurlik» ($r=-0,02$), «beta mag'rurlik» ($r=-0,22$, $p\leq 0,05$) hamda «eksternallik» ($r=-0,49$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro manfiy munosabatli bog'lanishlarni hosil qildi. Bundan ko'rinadiki, o'g'il bolalardagi aybdorlikning holat sifatida rivojlanishi ulardagi aybdorlikning xususiyat va axloqiy norma sifatida rivojlanishi, al'truizm-egoizm darajasi hamda internallik sifatlarining ham rivojlanishiga sabab bo'lar ekan. Bu holatni quyidagicha izohlash mumkin: demak bu ulardagi vaqtinchalik hissiy holat ya'ni, ayni damda yoki yaqinda sodir etilgan xatti-harakat uchun boshdan kechirilayotgan kechinma o'z vaqtida tuzatilmasa yoki axloqiy qadriyatlar, tamoyillar, me'yorlarga rioya qilishga asoslangan aybdorlikning shaxsda uzoq vaqt boshdan kechirilishi asta-sekinlik bilan barqaror shaxsiy xususiyatga aylanib ketishiga sabab bo'lishini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi natijalarga muvofiq o'g'il bolalar psixik xususiyatlari o'rtasida o'zaro korrelyatsion aloqadorlik aniqlandi. Bizningcha, bunday natija olinishining ijtimoiy-psixologik omili shaxsga yoshligidan beriladigan ta'lim-tarbiya hamda individual o'z-o'zini tarbiyalash, o'zgalarga yordam berish istagining yuqori bo'lishi, hayotidagi voqealar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish, har bir yuzaga kelgan noqulay vaziyatning sababini o'z xulq-atvori va xatti-harakatlaridan qidirish va natijada aybdorlik hissining yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Xuddi shu metodikadagi «aybdorlik xususiyati» aynan «aybdorlik axloqiy norma» ($r=0,38$, $p\leq 0,01$), «aybdorlik» ($r=0,77$, $p\leq 0,01$), «al'truizm-egoizm» ($r=0,85$, $p\leq 0,01$), «internallik» ($r=0,82$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro musbat munosabatli bog'lanishlarni hosil qilgan bo'lsa, «uyat» ($r=-0,39$, $p\leq 0,01$), «eksternallik» ($r=-0,30$, $p\leq 0,01$), «chetlanish» ($r=-0,08$), «alfa mag'rurlik» ($r=-0,28$, $p\leq 0,01$), «beta mag'rurlik» ($r=-0,41$, $p\leq 0,01$), «eksternallik» ($r=-0,82$, $p\leq 0,01$) sifatleri bilan o'zaro manfiy munosabatli bog'lanishlarni hosil qilganini ko'rishimiz mumkin.

Tahlil natijalariga ko'ra Kugler-Djons metodikasi bo'yicha o'g'il bolalarda «aybdorlik-axloqiy norma» sifatida «aybdorlik» ($r=0,32$, $p\leq 0,01$), «chetlanish» ($r=0,09$), «al'truizm-egoizm» ($r=0,24$, $p\leq 0,05$), «internallik» ($r=0,35$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro musbat munosabatli bog'lanishlarni hosil qildi, qolgan «uyat» ($r=-0,13$), «eksternallik» ($r=-0,19$, $p\leq 0,05$), «alfa mag'rurlik» ($r=-0,19$, $p\leq 0,05$), «beta mag'rurlik» ($r=-0,17$) hamda «eksternallik» ($r=-0,35$, $p\leq 0,01$) bilan esa o'zaro manfiy munosabatli bog'lanishlarni hosil qildi.

J.P.Tangneyning «Aybdorlik hissi va uyatni o'lchash metodikasi» bo'yicha «aybdorlik», qolgan «uyat» ($r=-0,56$, $p\leq 0,01$), «eksternallik» ($r=-0,45$, $p\leq 0,01$), «chetlanish» ($r=-0,05$), «alfa mag'rurlik» ($r=-0,28$, $p\leq 0,01$), «beta mag'rurlik» ($r=-0,50$, $p\leq 0,01$), «eksternallik» ($r=-0,69$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro manfiy munosabatli bog'lanishlarni hosil qilgan bo'lsa, faqatgina «al'truizm-egoizm» ($r=0,72$, $p\leq 0,01$) hamda «internallik» ($r=0,69$, $p\leq 0,01$) sifatleri bilan o'zaro musbat munosabatli aloqadorlikni ko'rsatdi.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra respondenlardagi J.P.Tangney bo'yicha «uyat» hissi qolgan «eksternallik» ($r=-0,01$), «chetlanish» ($r=-0,23$, $p\leq 0,05$), «alfa mag'rurlik» ($r=-0,10$), «al'truizm-egoizm» ($r=-0,33$, $p\leq 0,01$), «internallik» ($r=-0,32$, $p\leq 0,01$) sifatleri bilan o'zaro manfiy munosabatli aloqadorlikni hosil qilgan bo'lsa, aksincha, «beta mag'rurlik» ($r=0,17$) hamda «eksternallik» ($r=0,32$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro musbat munosabatli aloqadorlikda ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu metodika bo'yicha «eksternallik» qolgan «chetlanish» ($r=-0,22$, $p\leq 0,05$), «beta mag'rurlik» ($r=-0,03$), «al'truizm-egoizm» ($r=-0,26$, $p\leq 0,01$), «internallik» ($r=-0,26$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro manfiy munosabatli bog'lanishlarni hosil qilgan, aynan «alfa mag'rurlik» ($r=0,05$) hamda «eksternallik» ($r=0,28$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro musbat bog'lanishlarni hosil qilganligini ko'rsatdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, J.P.Tangney metodikasi bo'yicha respondenlardagi «chetlanish» xususiyati «alfa mag'rurlik» ($r=-0,29$, $p\leq 0,01$), «beta mag'rurlik» ($r=0,0006$) «al'truizm-egoizm» ($r=-0,13$), «internallik» ($r=-0,10$) bilan o'zaro manfiy munosabatli bog'lanishlarni hosil qilganini,

faqatgina «eksternallik» ($r=0,10$) bilan esa o'zaro musbat munosabatli aloqadorlikda ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari ushbu metodikadagi «alfa mag'rurlik» faqat «beta mag'rurlik» ($r=0,01$) hamda «eksternallik» ($r=0,31$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro musbat munosabatli aloqadorlikni hosil qilgan bo'lsa, qolgan «al'truizm-egoizm» ($r=-0,20$, $p\leq 0,05$) hamda «internallik» ($r=-0,31$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro manfiy munosabatli bog'lanishlarni hosil qildi.

Aynan ushbu metodikadagi «beta mag'rurlik» esa, faqat «eksternallik» ($r=0,32$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro musbat munosabatli bog'lanishlar hosil qilganini, aksincha «al'truizm-egoizm» ($r=-0,45$, $p\leq 0,01$) hamda «internallik» ($r=-0,32$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro manfiy munosabatli bog'lanishlarni hosil qilganini ko'rishimiz mumkin.

Tahlil natijalariga ko'ra respondenlardagi «al'truizm-egoizm» darajasi «internallik» ($r=0,78$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro musbat munosabatli aloqani hosil qilgan bo'lsa, aksincha «eksternallik» ($r=-0,78$, $p\leq 0,01$) bilan o'zaro manfiy munosabatli aloqadorlikni hosil qildi.

Yuqoridagi natijalarga muvofiq o'g'il bolalar psixik xususiyatlari o'rtasida o'zaro korrelyatsion aloqadorlik aniqlandi. Ya'ni, shaxsda altruizm darajasi hamda internallik sifati yuqori bo'ladigan bo'lsa ularda aybdorlik hissining darajasi ham yuqori bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Bizningcha, bunday natija olinishining ijtimoiy-psixologik omili shaxsga yoshligidan beriladigan ta'lim-tarbiya hamda individual o'z-o'zini tarbiyalash, o'zgalarga yordam berish istagining yuqori bo'lishi, hayotidagi voqealar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish, har bir yuzaga kelgan noqulay vaziyatning sababini o'z xulq-atvori va xatti-harakatlaridan qidirish va natijada aybdorlik hissining yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bu borada Amerikaning «Miya, tafakkur va xulq-atvor instituti» psixologi Alan Sanfeyning o'tkazgan tajribalarini ham misol qilib keltirishimiz mumkin ya'ni, uning ta'kidlashicha altruizm shaxs o'z boshidan kechirayotgan aybdorlik hissi natijasida yuzaga kelar ekan.

Olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra biz aybdorlik hissi namoyon bo'lishidagi gender tafovutni aniqlashga harakat qildik. (2-jadval)

Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Kugler-Djonsning metodikasi bo'yicha qiz bolalarda «aybdorlik holat» sifatida 11,90 ni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu natija o'g'il bolalarda 12,16 ga teng ekanligi ko'zga tashlanmoqda. St'yudent mezoni bo'yicha psixik xususiyatlar o'rtasidagi gender tafovut $t=-0,44$ ga teng, farq ahamiyatsiz ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rinadiki, aybdorlikning holat sifatida yuzaga kelishi qiz bolalarda ham o'g'il bolalarda ham deyarli bir xil boshdan kechiriladi va bu ulardagi ayni damda his qilayotgan kechinmalari bilan xarakterlanadi. O'g'il bolalar va qizlarning aybdorlik hissini boshdan kechirishdagi gender farqlar ularning jamiyatdagi o'rni haqidagi stereotipik tasavvurlar bilan bog'liq. Zero, o'g'il bolalar va qizlar jamiyatda oldindan saqlanib qolgan jinsiy rolga oid stereotiplarga qanchalik ko'p amal qilishsa, ular hayoti davomida ushbu xatti-harakat qoidalarini buzilishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatda o'zlarini aybdor his qilishadi.

2-jadval.

Psixologik xususiyatlar o'rtasidagi gender tafovut
(Styudent mezoni bo'yicha)

	M ₁ (Qizbolalar)	M ₂ (O'g'ilbolalar)	t – statistic farqko'rsatkichi
A.holat	11,90	12,16	-0,44
A.xususiyat	23,57	22,68	1,24
A.A.N.	23,08	23,55	-0,78
aybdorlik	7,89	7,55	1,19
uyat	2,36	2,38	-0,10
eksternallik	1,26	1,5	-1,66*
chetlanish	1,18	1,29	-0,82
alfa.mag'rurlik	1,18	1,19	-0,05
beta.mag'rurlik	1,12	1,05	0,54
altruizm.egoizm.	9,20	8,72	2,13**
eksternallik	11,26	11,14	0,41
internallik	11,73	11,85	-0,41

Izoh: * $p\leq 0,10$; ** $p\leq 0,05$

Yuqoridagi metodika bo'yicha qiz bolalardagi «aybdorlik xususiyat» sifatida 23,57 ni tashkil qilgan

bo'lsa, o'g'il bolalardagi ushbu natija 22,68 ga teng ekanligi ko'rsatmoqda hamda ular o'rtasidagi gender tafovut $t = 1,24$ ga, ahamiyatsiz ekanligi aniqlandi. Bundan ko'rinib turibdiki aybdorlikning xususiyat sifatida shakllanishi o'g'il bolalarda ham qiz bolalarda barqaror xususiyat sifatida deyarli bir xil darajada boshdan kechiriladi.

Shaxslarda «Al'truizm-egoizm darajasini aniqlash» metodikasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, qiz bolalardagi al'truizm darajasi 9,20 ni tashkil qilgan bo'lsa, o'g'il bolalardagi ushbu ko'rsatkich 8,72 ga teng ekanligi hamda ular o'rtasidagi gender tafovut $t = 2,13$, $p \leq 0,05$ ga teng bo'lgan ko'rsatkichni berdi. Bundan ko'rinib turibdiki, qiz bolalarda, o'g'il bolalarga nisbatan al'truizm darajasi nisbatan yuqori ko'rsatkichda bo'lib, qizlar o'z yaqinlariga, atrofidagi insonlarga ko'proq mehribonchilik ko'rsatib, ular haqida qayg'urishadigan bo'lishadi. O'g'il bolalarda esa aksincha bir oz egoizm darajasi yuqori ekanligi ko'zga tashlandi, bu holat esa ularni ko'proq o'zlarini yaxshi ko'rishlarini, o'z «men»ini yuqori qo'yishlarini ko'rsatmoqda. Bunga sabab esa ko'pchilik oilalarda qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan qattiqqo'llik bilan tarbiyalanadi. O'g'il bolalarni ko'pincha kechirishadi, ular biror-bir kichik ishni bajarishsa ham xursand bo'lishadi. Lekin, qiz bolalar «deyarli tug'ilgan vaqtdan» boshlab uydagi barcha ishlarni bajara olishi, bajarganda ham yaxshi bajarishi lozim, chunki u ertaga uy bekasi bo'lishi, barcha uy-ro'zg'or ishlarini o'zi bajarishi kerak, deb hisoblashadi. Shuning uchun ham barcha ishlarda «a'lochi» bo'lishga intilish sindromi ayollarda erkaklarga nisbatan kuchliroq bo'ladi, buni ayollarning doimo o'zlarini oqlashlarida, kechirim so'rashlarida, o'z xatti-harakatlarini tushuntirishga harakat qilishlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari J.Rotterning «Lokus nazorat» metodikasi yordamida olib borgan tadqiqotimiz natijalariga ko'ra qiz bolalarda eksternallik darajasi 1,26 ga, o'g'il bolalarda esa 1,5 ga teng ekanligi ifodalanmoqda. St'yudent mezoni bo'yicha psixik xususiyatlar o'rtasidagi gender tafovut $t = -1,26$ ga teng. Bu holat qiz bolalardagi internallik sifati, o'g'il bolalarnikiga nisbatan bir oz yuqori darajada ekanligini, ya'ni ular hayotidagi voqealar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olib, unga sabab qilib o'z xatti-harakatlarini, fe'l-atvorini ko'rsatishlarini, o'g'il bolalarda esa sodir bo'layotgan hodisalarning sabablarini tashqi omillarga bog'lash tendentsiyasi ustunlik qilishini ko'rishimiz mumkin.

Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki ogil bolalar va qizlarning aybdorlik hissini boshdan kechirishdagi gender farqlar ularning jamiyatdagi o'rni haqidagi stereotipik tasavvurlar bilan bog'liq. Zero, o'g'il bolalar va qizlar jamiyatda oldindan saqlanib qolgan jinsiy rolga oid stereotiplarga qanchalik ko'p amal qilishsa, ular hayoti davomida ushbu xatti-harakat qoidalarini buzilishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatda o'zlarini aybdor his qilishadi.

Aybdorlik hissi namoyon bo'lishidagi emotsional xulq-atvor reaksiyalarini tahlil qilish natijasida qizlar o'z-o'zini ayblash, pushaymonlik hissi hamda o'z xatti-harakatlarini oqlashga ko'proq moyilligini ko'rsatgan bo'lishsa, aksincha, o'g'il bolalar ushbu kechinmaga sabab bo'lgan vaziyat haqida o'ylamaslikni hamda iloji boricha unutishni xohlaydilar, zero ular o'z harakatlarini ko'p holatlarda yomon deb baholamaydilar ham.

Tadqiqot natijasiga ko'ra aybdorlik tarkibiga quyidagilar kiradi: hissiy komponent, unda disforik xarakterdagi kechinmalar ya'ni depressiya, tushkunlik, azob-uqubatlar, afsuslanish va pushaymonlik aniq kuzatiladi; kognitiv komponent, bu «xulq-atvor, xatti-harakatlarni anglash va tahlil qilish», «real», «ideal» hamda «ichki baholash» o'rtasidagi nomuvofiqlikni anglash; motivatsion komponent, unda «hozirgi vaziyat yoki xatti-harakatni tuzatish, o'zgartirish istagi» ustunlik qiladi. Bundan tashqari aybdorlikni boshdan kechirganda, ayrim respondentlar ichki noqulaylik hissi, yoqimsiz jismoniy his-tuyg'ular, ya'ni psixosomatik komponentni, masalan, «ichki zo'riqish», «bosh og'rig'i» va «yomon uyqu»ni his qilishlarini ko'rsatdilar.

Qizlar aybdorlikni boshdan kechirganda, boshqalardan o'zlariga nisbatan hammadlik bildirishlarini, ularni tushunishlarini, qo'llab-quvvatlashlarini hamda kechirimli bo'lishlarini xohlashadi, o'g'il bolalar esa ko'proq ijtimoiy jozibadorlikka qiziqish bildirishadi, bu esa axloqiy talablarga rioya qilish zarurligini ko'rsatadi, ya'ni, halol, tartibli va mas'uliyatli bo'lish.

Shaxslarda norozilikni keltirib chiqaruvchi aybdorlikni sababsiz ranjitish, xavotir omillarining ifodalanishiga ko'ra shaxsiy hayot bilan bog'liq xususiyatlarning namoyon bo'lishida qo'rquv, afsuslanish, pushaymonlik, vijdon azobi sifatlarini kuchayishi natijasida autoagressiya dominanta detirminantalar ustivorligi yuzaga keladi.

Shaxsda aybdorlik hissining o'z me'yorida bo'lishi bu kechinmani ijobiy ta'sirini ko'rsatsa, uning me'yordan ortib ketishi, bu kechinmaning salbiy ta'sirini ham ortib ketishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Белик И.А. Чувство вины в связи с особенностями развития личности. Автореф.....пс. н. С.-Петербург. 2006. -19 с.

Ильин Е. П. Эмоции и чувства: [Учеб.пособие]. - СПб.: Питер, 2019. -784с.

Исаев И., Алхимия эмоций. Немного о природе чувств и страстей. Изд. Беловодье. 2009.

Мусихин А.Е. Зачем нужны эмоции и что с ними делать. КТК Галактика, 2022. -318с